

TILDA AKS ETGAN QADRIYATLAR

Axmedova Aziza Rustamovna*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiologvistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi hamda duo va olqishlarda ifodalangan qadriyatlar tahlil etiladi. Tadqiqotda "qadriyat" tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, duo va olqishlarning madaniy-ma'naviy, axloqiy hamda diniy kontekstda qanday semantik yuklamaga ega ekani misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aksiologvistika, qadriyat, duo, olqish, niyat, madaniyat, tushuncha.

Zamonaviy tilshunoslik fani nafaqat til tizimini va uning vazifalarini o'rganish bilan, balki tilning jamiyat hayotidagi kengroq ijtimoiy, madaniy, axloqiy va ma'naviy jihatlarini ham o'rganishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, aksiologvistika bugungi kunda tilshunoslikning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aksiologvistika — bu tilni qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda, ularning ifodasi va shakllanishidagi vosita sifatida o'rganadigan fan sohasidir.

Tilda mujassam bo'lgan axloqiy, estetik, ijtimoiy va milliy qadriyatlarni aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda bu qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini yoritish aksiologvistikaning asosiy vazifasidir.

Til inson tafakkurining mahsuli bo'lish bilan birga, u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlar va axloqiy-me'yoriy qarashlarini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida ishlatiladigan "halollik", "or-nomus", "kattaga hurmat", "mehr-oqibat", "sog'lik", "baraka", "farzand" kabi tushunchalar faqat leksik birlik sifatida emas, balki xalqimizning qadriyat sifatida qadrlanadigan tushunchadir.

Aksiologvistik tadqiqotlar bu tushunchalarning til orqali qanday ifodalanishini, qanday ijtimoiy vazifalarni bajarayotganini o'rganadi. Shu tariqa til – nafaqat fikr almashish vositasi, balki qadriyatlar tizimining tashuvchisi va targ'ibotchisiga aylanishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar va qadriyat tizimlarining o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda, milliy tilimizda mavjud qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni ilmiy asosda tadqiq etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da qadriyat quyidagicha izohlanadi: "Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli

bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’analar, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi” [8; 570].

Demak, hayotda jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar qadriyat hisoblanadi. Qadriyatlarda ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy hodisalarga bo‘gan munosabati va ularning ahamiyati aks etadi.

Tilshunos olim D.Xudoyberganova esa qadriyatni real voqelikning namoyon bo‘lish shakllari, undagi narsa, hodisa va jarayonlar, shuningdek, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya ekanligi hamda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar ekanligini ta’kidlaydi [4; 72].

Shalina qadriyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Qadriyatlar har qanday madaniyatning asosiy unsuri bo‘lib, ular ko‘pincha ijtimoiy guruhlarning hayot faoliyatini boshqaradigan tamoyillar sifatida talqin etiladi [Shalina; 135].

Duo va olqishlar o‘zbek tilida keng tarqalgan birliklar bo‘lib, ular ko‘pincha yaxshi niyat, mehr-oqibat, hurmat va jamoaviy baxtni ulashish kabi qadriyatlarning ifodachisidir. Duo – bu bir shaxsning boshqa shaxs yoki guruh uchun yaxshi tilaklar bildirishi bo‘lsa, olqish odatda ijobiy baho berish, maqtash yoki minnatdorchilik bildirish shaklida keladi. Bu ikki turdagi ifoda o‘zbek madaniyatida odob-axloq, mehr-oqibat va diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ma’lumki, olqishlar kishilarni sharaflash, ulug‘lash va shu orqali ularga ezgu tilaklarni bildirishda vazifasini bajaradi. B.Sarimsoqovning qayd etishicha, olqishlar inson hayotida yuz bergan biror-bir ijtimoiy-hayotiy o‘zgarishni sharaflash, shuning bahonasida hayotida ruhiy evrilish yuz bergan kishiga yaxshi niyat bildirish vazifasida qo‘llanadi, shu sababli qadimdan bir olamdan boshqa olamga o‘tayotganlar, yangi bir ish boshlovchilarga bag‘ishlab olqish aytish odati shakllangan. Inson o‘zidagi so‘zlash iqtidorini ilohiy qudrat deb bilgan. Ko‘rish, so‘zlash va xatti-harakat uchligida sehr-jodu qudratini ko‘ra olgan va o‘zining butun faoliyatida ularga munosabatda bo‘lishga intilgan [3; 129].

Berilgan ta’riflardan anglashiladiki, olqishlarda ulug‘lash, olqishlash tilak, istak shaklida namoyon bo‘ladi.

Xalqimizda uzoq safarga chiqishidan oldin yaxshi tilaklar va duolar qilinadi, yo‘lovchining eson-omon borib kelishiga ishonch bildiriladi. Quyidagi misolda ham oy borib, omon kelinglar, safarlaring bexatar bo‘lsin, do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin tazidagi uchta tilak konstriksiya va *Iloyo tuproq olsanglar oltin bo‘lsin* olqishi qo‘llangan. So‘zlovchining ushbu nutqi orqali suhbatdoshiga bexatar yo‘l va olqishlash nutqiy harakatini ham amalga oshirgan.

– Qani, omin! – dedi duoga qo‘l ochib. – **Bolamni sizga, sizni Xudoga topshirdim. Oy borib, omon kelinglar. Safarlaring bexatar bo‘lsin, do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin. Iloyo tuproq olsanglar oltin bo‘lsin. Iloyo...**

(O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Bolamni sizga, sizni Xudoga topshirdim gapida Xudoga bo‘lgan ishonchni, “topshirdim” so‘zi esa insonning taqdirini Xudoning ixtiyoriga qoldirishini, shu bilan unga bo‘lgan mehrini va g‘amxo‘rligini bildiradi. *Oy borib, omon kelinglar. Safarlaring bexatar bo‘lsin, do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin* tilak konstriksiyasida “omonlik” va “bexatarlik” inson hayotidagi asosiy qadriyatlardan biri sifatida aks etgan. Bilamizki, safarda turli xavf-xatarlar bo‘lishi mumkin, bu tilaklar safardagi xavsizlikni ta‘minlashga qaratilgan diniy va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalagan. “Xudoga topshirdim” va “iloyo” kabi so‘zlar diniy kontekstga ega bo‘lib, o‘zbek xalqining islomiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Iloyo” so‘zi duo va olqishning eng muhim belgilari sifatida ishlatiladi.

Farzand o‘zbek xalqining eng muhim qadriyatlaridan biri sanaladi. Ota-bobolarimiz farzand ko‘rganda unga atab daraxt ekishgan va ushbu yosh niholni parvarishlab, katta va sersoya daraxt bo‘lishiga sababchi bo‘lishgan. Shuning uchun ham “ko‘chat so‘zini eshitish bilanoq til egalari ongida ijobiy aura: ko‘chat – yosh nihol; ko‘chat – bog‘dorchilik; ko‘chat – farzand (obrazli qiyofa) shakllanadi” [1; 63]. O‘zbek xalq maqollari orasida ham farzand qadriyati aks etgan maqollari mavjud: *Farzandli uy bozor, farzandsiz uy mozor; Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt; Tog‘ning ko‘rki – lola bilan, uyning ko‘rki – bola bilan; Farzand – belning quvvati; Odamning mevasi – bola; Ona bilan bola – gul bilan lola; Farzand – jonga payvand* va b. Shuningdek, xalq qo‘shiqlari va duolarida ham farzand aziz ne‘mat ekanligi ifodalanadi:

Ramazon aytib keldik eshigingizga,

Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga.

O‘zbek xalqi o‘zining oilaparvarligi bilan ajralib turadi va uni muqaddas deb hisoblaydi. Har bir oilaga xotirjamlik, baraka, sog‘lik, farovonlik tilab qilinadigan ko‘plab duo va olqishlar mavjud bo‘lib, ularda milliy qadriyatlar aks etadi:

Shundan keyin amma-xolasi ikki qo‘ltig‘idan tutib tashqariga opchiqishdi, o‘choqqa o‘t yoqishib, idishdagi yog‘ni uch marta oz-ozdan kuydirishdi. “Qozoning doim yog‘li bo‘lsin, muhtojlik ko‘rmagin”, deyishdi.

(Isajon Sulton. “Onaizorim”)

Yuqoridagi matnda o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishdagi e‘tiqodlarga borib taqaladigan “Yog‘ kuydirish”, “Is chiqarish” kabi urf-odatlaridan biri tasvirlangan bo‘lib, unga oilaga baraka, farovonlik tilash ramzi sifatida qaraladi. Ushbu urf-odat hozirda ham respublikamizning ayrim viloyatlarida to‘yning ikkinchi kuni yoshi katta ayollar tomonidan

amalga oshiriladi, shuningdek, ushbu xonadondan duoga umidvor bo‘lgan ruhlarga atab qilinadi. *Qozoning doim yog‘li bo‘lsin, muhtojlik ko‘rmagin* duosida baraka, farovonlik hamda rizqning ko‘pligi, oilaning ochlik va muhtojlik ko‘rmasligi anglashiladi. Ushbu duo o‘zbek xalqi tomonidan *qora qozoning qaynab tursin, qozoning moyli bo‘lsin, qozoning osig‘liq bo‘lsin* kabi turli variantlarda ko‘p aytiladigan, hammaga tilanadigan tilak va olqishlar hisoblanadi. Rizq va baraka Alloh tomonidan beriladigan ne‘matdir. Demak, *qozoning doim yog‘li bo‘lsin, muhtojlik ko‘rmagin* duosida “baraka” qadriyati aks etgan.

Demak, duo va olqishlar o‘zbek xalqining qadimiy madaniyati, diniy e‘tiqodi va axloqiy me‘yorlarini o‘zida mujassam etgan til birliklari bo‘lib, ularda xalqning muqaddas qadriyatlari ifodasini topadi. Ular o‘zbek tili va madaniyatining qadriyatlar tizimini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning aksiologingvistik o‘rganilishi milliy qadriyatlarning til orqali qanday shakllanishi va avlodlar xotirasida qanday saqlanishini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан бўйича ф-са д-ри ... дисс. – Тошкент, 2022. – 170 б.
2. Ниязова М.Х. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 56 б.
3. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. – Тошкент: Фан, 1988. 1-том. – Б.128-143.
4. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 126 b.
5. Худайкулова Ш. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан бўйича ф-са д-ри ... дисс. – Тошкент, 2022. – 150 б.
6. Шалина И.В. Уралское городское просторечие: лингвокультурные типажи / И. В. Шалина // Известия Уралского федерального университета. – 2009. – С. 134-143.
7. Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 148 б.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедия. 10-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 656 б.